

HUDUDNI TURISTIK-REKREATSION RAYONLASHTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI

Mamadiyorov Adhamjon Qo‘chqar o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21902952>

Annotatsiya. Ushbu tezisda hududni turistik-rekreatsion rayonlashtirishning nazariy va uslubiy jihatlarini tahlil qilingan. Rekreatsion geografiya maktabining konseptual asoslari, rayonlashtirishning tamoyillari, mezonlari hamda bosqichlari yoritilgan. Rayonlashtirishning hal etilmagan uslubiy masalalari aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan integral yondashuv taklif etilgan. Rayonlashtirishning hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli asoslangan.

Kalit so‘zlar: turistik-rekreatsion rayonlashtirish, hududiy-rekreatsion tizim, rekreatsion salohiyat, ball-baholash, geoaxborot tizimlari, funksional ixtisoslashuv, mintaqaviy rivojlanish.

Аннотация. В тезисах проанализированы теоретические и методические аспекты туристско-рекреационного районирования территории. Раскрыты концептуальные основы школы рекреационной географии, принципы, критерии и этапы районирования. Выявлены нерешённые методические проблемы районирования и предложен интегральный подход к их преодолению. Обоснована роль районирования в социально-экономическом развитии территории.

Ключевые слова: туристско-рекреационное районирование, территориально-рекреационная система, рекреационный потенциал, балльная оценка, геоинформационные системы, функциональная специализация, региональное развитие.

Abstract. In this paper, the theoretical and methodological aspects of tourist-recreational regionalization of a territory are analyzed. The conceptual foundations of the school of recreational geography, as well as the principles, criteria and stages of regionalization, are examined. The unresolved methodological problems of regionalization are identified, and an integrated approach to overcoming them is proposed. The role of regionalization in the socio-economic development of the territory is substantiated.

Keywords: tourist-recreational regionalization, territorial-recreational system, recreational potential, score-based assessment, geographic information systems, functional specialization, regional development.

Kirish. Hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda turizm va rekreatsiya tarmog‘ining roli izchil ortib bormoqda. Mamlakatimizda turizmni jadal rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati hududlarning turistik-rekreatsion salohiyatidan oqilona foydalanishni dolzarb vazifaga aylantirdi. Biroq bu salohiyatdan samarali foydalanish uchun, eng avvalo, uning makonda qanday taqsimlanganini hamda qaysi hududlar qaysi rekreatsion funksiyaga ixtisoslashuvi maqsadga muvofiqligini ilmiy asosda aniqlab olish talab etiladi. Ana shu vazifani turistik-rekreatsion rayonlashtirish bajaradi. Shu bois rayonlashtirishning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga ega.

Tushuncha va nazariy asoslar. Turistik-rekreatsion rayonlashtirish – hududni rekreatsion resurslarning turi, sifati, joylashuvi va o‘zlashtirilish darajasi bo‘yicha o‘zaro nisbatan bir xil bo‘lgan hududiy birliklarga (rekreatsion rayonlarga) ajratish jarayonidir. Uni zonalashtirishdan (resurslarning bir belgisi bo‘yicha tabaqalash) va klasterlashtirishdan (o‘zaro bog‘liq korxonalarning hududiy to‘plami) farqlash lozim: rayonlashtirish – keng qamrovli, ko‘p mezonli va boshqaruvga yo‘naltirilgan yondashuv.


Turistik-rekreatsion rayonlashtirish umumiy iqtisodiy rayonlashtirish nazariyasining sohaviy ko‘rinishi sifatida qaralishi lozim. Mintaqaviy iqtisodiyot fanida iqtisodiy rayonlar ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning asosiy shakli va davlat mintaqaviy siyosatining obyekti sifatida talqin etiladi, rayonlashtirishning bosh sharti esa hududiy makonning ichki tabaqalanganligi hisoblanadi: ichki tafovutlar qanchalik katta bo‘lsa, rayonlar tizimini ajratish shunchalik asosli bo‘ladi [4. 2003:B.47]. Bu qoida rekreatsion sohaga to‘la tatbiq etiladi – tabiiy sharoitlari keskin farqlanadigan, masalan, tog‘li va cho‘l zonalarini o‘zida birlashtirgan hududlarda turistik-rekreatsion rayonlashtirishga ehtiyoj ayniqsa yuqori bo‘ladi. Shuningdek, har bir rayon o‘ziga xos rayon hosil qiluvchi omil asosida shakllanishi haqidagi qoida rekreatsion rayonlarga ham taalluqlidir: bir rayonni noyob tabiiy landshaft, boshqasini tarixiy-madaniy meros, uchinchisini qulay transport-geografik o‘rin tashkil etadi [4. 2003:B.56].

O‘zbekistonda iqtisodiy rayonlashtirish bo‘yicha to‘plangan boy ilmiy tajriba va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks o‘rganish an‘anasi turistik-rekreatsion rayonlashtirish metodikasini milliy sharoitga moslashtirishda ishonchli tayanch bo‘lib xizmat qiladi [5. 2010:B.3-4].

Rayonlashtirishning nazariy poydevori rekreatsion geografiya fanida shakllangan. “Hududiy-rekreatsion tizim” konsepsiyasi V.S. Preobrajenskiy boshchiligidagi olimlar guruhi tomonidan ilgari surilgan [2. 2014:B.29]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, har qanday rekreatsion hudud o‘zaro bog‘liq quyi tizimlardan – dam oluvchilar, tabiiy va madaniy majmualar, muhandislik-texnik infratuzilma, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar hamda boshqaruv organidan iborat yaxlit tizim sifatida qaraladi [2. 2014:B.11]. N.S. Mironenko va I.T. Tverdoxlebovlar rayonlashtirish metodologiyasini chuqurlashtirib, rekreatsion rayonlarni ajratish mezonlari va bosqichlarini ishlab chiqdilar [3. 1981:B.94].

Turizm iqtisodiyoti yo‘nalishida I.V. Zorin, V.A. Kvartalnov [1. 2014:B.327] hamda mahalliy olimlardan I.S. Tuxliyev [7. 2014:B.41-42] va S.A. Abduxamidovlarning [6. 2025:B.131] tadqiqotlarida salohiyatdan foydalanishning iqtisodiy jihatlari rivojlantirildi.

Rekreatsion rayonlashtirish birliklari o‘zaro iyerarxik tuzilishga ega bo‘lib, eng yirik birlik – rekreatsion zonadan eng kichik birlik – rekreatsion punktga bosqichma-bosqich detallashadi (1-rasm).



1-rasm. Rekreatsion rayonlashtirish birliklari iyerarxiyasi

Manba: muallif tomonidan [3] asosida tuzilgan.

Mazkur iyerarxiyaning eng yuqori bosqichi – rekreatsion zona (region) bir necha hududni qamrab oluvchi yirik tabiiy-rekreatsion makonni ifodalaydi. Undan keyingi bosqich – rekreatsion rayon (makrorayon) yagona ixtisoslashuv va infratuzilmaga ega yaxlit hududni (ko‘pincha viloyat darajasini) anglatadi. Rekreatsion podrayon (mezorayon) rayon tarkibidagi o‘ziga xos ixtisoslashgan yirik hududiy qismni, rekreatsion mikrorayon turistik resurslar va obyektlar zich to‘plangan markazni, eng quyi bosqich – rekreatsion punkt esa alohida sanatoriya, dam olish yoki ekskursiya obyekti bildiradi. Shu tariqa rayonlashtirish hududni miqyosi bo‘yicha izchil detallashtirib, boshqaruv va rejalashtirishning aniq darajalarini belgilab beradi.

Rayonlashtirish tamoyillari. Turistik-rekreatsion rayonlashtirish quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi: bir xillik tamoyili – bir rayonga kiritilgan hududlar rekreatsion resurslar va funktsiya jihatidan o‘xshash bo‘lishi; hududiy yaxlitlik – ajratilgan rayonning uzluksiz, yaxlit hudud sifatida shakllanishi; funksional ixtisoslashuv – har bir rayonning ustun rekreatsion yo‘nalishini (tog‘, suv, ekologik, ziyorat va boshqalar) belgilash; ma’muriy-hududiy birliklar bilan moslik – rayonlashtirish natijalarini boshqaruv va statistik hisob bilan bog‘lash imkoniyati; perspektivlilik – nafaqat mavjud, balki istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlarini ham hisobga olish.

Uslubiy yondashuv: mezonlar, usullar va bosqichlar. Rayonlashtirishning uslubiy negizini rekreatsion resurslar va salohiyatni baholash tashkil etadi. Baholashda quyidagi asosiy mezonlar e’tiborga

olinadi: tabiiy-rekreatsion resurslar (relyef, iqlim, suv havzalari, landshaftlar), tarixiy-madaniy obyektlar, infratuzilma bilan ta'minlanganlik, turistik oqim hajmi hamda salohiyatdan amaldagi foydalanish darajasi.

Baholash va guruhlashda ball-baholash (bonitirovka), integral indeks, geoaxborot tizimlari (GIS) hamda klaster tahlili usullaridan foydalaniladi. Zamonaviy GIS-texnologiyalar resurslarning makoniy taqsimotini xaritalashtirib, rayon chegaralarini obyektiv asoslash imkonini beradi [2. 2014:B.116].

Rayonlashtirish jarayoni, odatda, quyidagi bosqichlardan iborat: birinchidan, rekreatsion resurslarni inventarizatsiya qilish; ikkinchidan, ularni tanlangan mezonlar bo'yicha baholash; uchinchidan, hududiy birliklarni o'xshashlik darajasiga ko'ra guruhlash; to'rtinchidan, rekreatsion rayonlarni ajratish; beshinchidan, har bir rayonni funksional ixtisoslashtirish va rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash.

Nazariy-uslubiy masalalar. Rivojlangan nazariy bazaga qaramay, turistik-rekreatsion rayonlashtirishda bir qator hal etilmagan masalalar saqlanib qolmoqda.

Birinchidan, yagona, umume'tirof etilgan metodikaning yo'qligi. Turli tadqiqotchilar turlicha mezon va og'irlik koeffitsiyentlaridan foydalanadi, natijada turli mualliflarning rayonlashtirish natijalarini bevosita qiyoslab bo'lmaydi.

Ikkinchidan, ma'muriy chegaralar bilan tabiiy rekreatsion zonalarning mos kelmasligi. Rekreatsion resurslar (tog' tizimlari, suv havzalari) ko'pincha bir necha ma'muriy tumanni kesib o'tadi, bu boshqaruv va statistik hisobni murakkablashtiradi.

Uchinchidan, mezonlarni tanlash va ularga og'irlik berishdagi subyektivlik. Faqat ekspert baholariga tayanish natijalarning ishonchlilik darajasini pasaytirishi mumkin.

To'rtinchidan, rekreatsion resurslar bo'yicha to'liq va yagona ma'lumotlar bazasi – rekreatsion kadastrning yetishmasligi. Bu miqdoriy baholashni qiyinlashtiradi.

Beshinchidan, tabiiy-resurs ko'rsatkichlari bilan iqtisodiy ko'rsatkichlarni yagona integral baholashda uyg'unlashtirishning murakkabligi. Aksariyat metodikalar resurs salohiyatini baholaydi, biroq undan foydalanish samaradorligini e'tibordan chetda qoldiradi.

Rayonlashtirishning iqtisodiy ahamiyati. Turistik-rekreatsion rayonlashtirish faqat geografik emas, balki muhim iqtisodiy ahamiyatga ham ega. U mintaqaviy rivojlanishni boshqarishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi [6. 2025:B.133]: maqsadli investitsiyalarni eng salohiyatli rayonlarga yo'naltirish, rekreatsion klasterlarni shakllantirish hamda rayonlarning funksional ixtisoslashuvini ta'minlash imkonini beradi. Buning natijasida rekreatsion salohiyatdan foydalanish samaradorligi ortadi, bu esa hududiy yalpi mahsulot, aholi bandligi va daromadlarining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan rayonlashtirish hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va makoniy rejalashtirishning ilmiy asosi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, turistik-rekreatsion rayonlashtirish hududning salohiyatidan samarali foydalanishning muhim ilmiy-amaliy vositasidir, biroq uning uslubiy bazasi yanada takomillashtirilishi zarur. Yuqorida qayd etilgan masalalarni bartaraf etish maqsadida integral yondashuvni qo'llash taklif etiladi. Bunda quyidagi aniq ilmiy-amaliy yechimlar nazarda tutiladi:

- Metodologik muammolarni bartaraf etishda: baholash ko'rsatkichlari tizimini unifikatsiya qilish (birlashtirish) hamda turli darajadagi hududlar uchun yagona milliy reyting uslubiyotini ishlab chiqish;

- Ma'muriy chegaralar nomutanosibligida: resurslarning hududiy yaxlitligini ta'minlash uchun ma'muriy chegaralarga emas, balki tabiiy-geografik hududlarga tayanuvchi “Tumanlararo (transchegaraviy) rekreatsion klasterlar” modelini joriy etish;

- Baholashdagi subyektivlikni kamaytirishda: mezonlarga og'irlik (vazn) berish jarayonini matematik modellashtirish, ya'ni iyerarxiyalarni tahlil qilish usuli (AHP) asosida koeffitsiyentlarni dasturiy avtomatlashtirish;

- Ma'lumotlar bazasini shakllantirishda: zamonaviy geoaxborot tizimlari (GIS) imkoniyatlaridan foydalanib, hududiy resurslarning makoniy taqsimotini aks ettiruvchi “Raqamli rekreatsion resurslar kadastr” platformasini yaratish;

- Ko'rsatkichlarni uyg'unlashtirishda: an'anaviy ball-baholash (bonitirovka) uslubiga resurs sig'imi hamda amaldagi iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini jamlovchi integral indeks formulasini tatbiq etish.

Bunday integral yondashuv natijalarni ham obyektiv, ham amaliy jihatdan ishonchli qilib, rayonlashtirishni hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalariga bevosita bog'lash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма. Справочник. – М.: Финансы и статистика, 2014. – 368 с.

2. Кружалин В.И., Мироненко Н.С., Зигерн-Корн Н.В., Шабалина Н.В. География туризма: Учебник. – М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. – 336 с.
3. Мироненко Н.С., Твердохлебов И.Т. Рекреационная география. – М.: Изд-во МГУ, 1981. – 207 с.
4. Солиев А.С. ва бошқалар. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. – Т.: ЎЗМУ, 2003. – 303 б.
5. Солиев А., Назаров М., Курбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. Монография. – Т.: “Mumtoz so‘z”, 2010. – 348 б.
6. Abduxamidov S.A. Turistik mintaqalar: ularni tashkil qilish va rivojlantirishda rayonlashtirish xususiyatlari // Servis: Ilmiy-amaliy jurnal (SamISI). – Samarqand, 2025. – № 3. – B.130-135.
7. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. – Т.: Fan va texnologiya, 2014. – 332 б.